

NEFT TAYYORLASH MASKANIDA TEXNOGEN AVARIYANI  
OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Mo'ydinov Eldorbek Qo'shaqboyevich*

*Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi*  
*E-mail: dilik6109@gmail.com* [Telefon: \(97\)206-71-01](tel:972067101)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada neft tayyorlash maskanida texnogen avariya va uning oldini olish usullari yoritiladi. Shuningdek, neft tayyorlash maskanida texnogen avariyaning oldini olish usullarini takomillashtirish tizimi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Qatlam bosimini saqlash, texnologik qurilmalar, mahsulot, samaradorlik, xavfsiz ishlash usullari, texnologiyalar, texnogen avariya.

Respublikamizda aholi va hududni texnogen FVlardan muhofaza qilish uchun bir qator ishlar qilinmoqda. Shu jumladan, 1995 yil 20 avgustda «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'grisida»gi qonun qabul kilinganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Bundan tashqari Respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan «Yong'in xavfsizligi oyligi», «Yo'l harakati xavfsizligi oyligi» kabi tadbirlar ham texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi va hududlar xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyat yuz berganda harakatlanishga oid tayyorgarlik darajalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ishlab chiqazish sohasida faoliyat yuritayotgan har bir ishchi halokatlar yuz berganda harakatlanish qoidalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Misol uchun, elektr energiyasini tarmoqdan uzishning ham o'ziga xos talablari, gaz, bug' apparatlarini o'chirishning ham o'ziga xos qonun qoidalari mavjud bo'lib, agar texnologik jarayonlar va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinmasa, inson hayotiga juda katta xavf solishi yoki juda katta moddiy talofatlar keltirishi mumkin.

Har bir ishlab chiqazish sohasi xodimi halokatlar yuz berganda jamoa muhofaza inshootlari joylashgan yerlarni, xavfsizlik joylarga chiqish yo'llarini, yakka himoyalash vositalari bilan ta'minlashni tashkil etishni va ulardan foydalanish tartibini bilishi lozim. Texnologik uskunalarni germetizatsiyalash va ishlash tizimini doimiy nazorat qilish, shu bilan yong'in va portlash xavflarini oldini olish zarur. Elektr asboblarning holatini, sig'imi, qism va tarmoqlarini, bosim ostida ishlashini, nazorat o'lchov asboblari, himoyalash va bloklash apparatlarining ish faoliyatini doimiy nazorat qilish hamda aniqlash kerak.

Har bir tashkilotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatlarning bartaraf etish rejasi ishlab chiqiladi. Ishchi va xizmatchilarning halokat yuzaga kelgan vaziyatlarda o'zini tutish va harakatlanishga tayyorlash tadbirlari tashkil etiladi, ularni bartaraf etish kuch va vositalarining zaruriy zahiralari ko'rib chiqiladi. FV yuzaga kelganda ogohlantirish tizimi va vositalari doimiy shay holatda saqlash, ishchi o'rinlari uchun kerakli shaxsiy himoyalash vositalari sonini ta'minlash zarur.

Halokatlar sodir bo'lganda muhim vazifalardan biri ishlab chiqarish korxonasi va aholi yashash punktlariga xavf haqidagi xabarni etkazish hisoblanadi. Shuningdek, ob'ektning har bir ishchi, xodimi halokat sodir bo'lganda ogohlantirish vositalaridan

foydalanish va tegishli tashkilotlarga xabar berishni bilishi zarur.

Neft tayyorlash tayyorlash maskanida texnogen avariyaning oldini olish uchun quyidagi xavfsizlik qoidalariga amal qilish shart:

Sig'im-idishlarni ishlatish, suyultirilgan neftli gazlarni saqlash va tashishda xavfsizlik qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi shart.

T-15°C dan undan yuqori xolatdagi maxsulotlar bilan sig'im-idishni to'ldirishning maksimal kattaligi 83% dan oshmasligi shart. Maxsulotlarning T-15°C dan past bo'lgan xaroratida, maksimal to'ldirish kattaligi quyidagi xisob kitobda belgilanadi: propan uchun - 425 kg/m<sup>3</sup>, butan uchun - 486 kg/m<sup>3</sup>.

Erkin otilab tushuvchi xolatda maxsulotlarni kuyish man qilinadi. Ta'mirdan so'ng, birinchi to'ldirilishda yoki apparatni ochgan xolda ko'rikdan o'tkazishda, portlashxavfli aralashmalar hosil bo'lishini oldini oluvchi choralar ko'rish zarur (oldindan but bilan, tabiiy yoki inert gaz bilan dam beriladi).

Satxni o'lchash uchun, o'zi egiluvchi jumraklari bo'lgan o'lchovchi oynalarni o'rnatishga ruxsat etiladi.

Oynada, chegaralangan satx belgisi bo'lishi shart. Haydab olinadigan maxsulot xarorati, bug'lar tarangligi sig'im-idish (ishchi) uchun ruxsat etilgan bosimdan oshadigan xaroratdan yuqori bo'lmasligi shart.

Namuna olish, maxsulotlarning maksimal bosimga namuna olgichlarda amalga shiriladi xisob-kitob sig'im-idishda qilingan. Sig'im-idishdan suvlarni tashlash shtutseri, muzlamaydigan klapan bilan jixozlangan bo'lishi shart. Sig'im-idishlarda mahsulotlarni 45 °S dan yuqori xolatda qizdirish mumkin bo'lgan joylarda, sig'im-idishni qizib ketishini oldini olish uchun choralar ko'rilgan bo'lishi shart.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Акромов Б.Ш., Умедов Ш.Х. “Нефт казиб олиш буйича маълумотнома” Тошкент ; “Фан ва технология”, 2010-368 б.
2. Акромов Б.Ш., Сидикхужаев Р.К. “Нефт ва газ иши асослари”, Тошкент; ТДТУ, 2003. 203 б.
3. Акромов Б.Ш., Хаитов О.Г. Нефт ва газ махсулотларини йиғиш ва тайёрлаш. Дарслик. - Т.: “Илм-Зиё”, 2003.
4. Анализ состояния разработки нефтегазоконденсатного месторождения Крук и выдача рекомендаций по стабилизации добычи нефти: Отчет о НИР / ОАО “УЗЛИТИНЕФТГАЗ”; Ответственный исполнитель Шахназаров Г. А. - Тошкент ; 2009.
5. Антонова Э.О., Крилов Г.В., Прохоров А.Д., Степанов О.А. “Основы нефтегазового дела”, Учебник для вузов, Москва, ООО “НедраБизнесцентр”- 2003. 307 стр.